

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING "KONI LAZZAT XONI NE'MAT" ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING "AL-KASHSHAF" ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O'RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A'ZAM MEROSI: BAG'RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA'LIMDA INSONPARVARLIK G'OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: "SHUM BOLA" ASARINING O'ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO'ZLASHUV NUTQIDA SO'Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE'RIYATINING G'OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CERTAIN CRIMINAL LAW ASPECTS OF THE OFFENSE OF COUNTERFEITING AND CIRCULATION OF CURRENCY, EXCISE STAMPS, OR SECURITIES

Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'gli,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law;

Lecturer at the Department of Legal Sciences,

National University of Uzbekistan (UzMU)

E-mail: sultonbekahmadjonov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-9706-3842>

Abstract. The article examines the objective and subjective elements of the offense stipulated in Article 176 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan concerning the counterfeiting and circulation of currency, securities, and excise stamps. Through normative legal analysis, the study identifies its social danger and proposes recommendations for improving law enforcement practice.

Keywords: counterfeit currency; excise stamp; securities; intent to circulate; corpus delicti; social danger; track and trace system.

QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,

O'zMu "Huquqiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada JK 176-moddasida nazarda tutilgan qalbaki pul, qimmatli qog'oz va aksiz markalarini yasash hamda o'tkazish jinoyatining obyektiv va subyektiv jihatlari tahlil qilindi. Normativ-huquqiy tahlil asosida jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavfliligi va xorijiy tajriba o'rganilib, huquqni qo'llash amaliyoti yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: qalbaki pul; aksiz markasi; qimmatli qog'ozlar; o'tkazish maqsadi; jinoyat tarkibi; ijtimoiy xavflilik; track&trace tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N44>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda Jk) 176-moddasi qalbaki pul, qimmatli qog'ozlar shuningdek aksiz markalarini yasash va ularni o'tkazishni jinoyat sifatida qayd etgan. Modda 1-qism dispozitsiyasida esa yuqoridagi harakatlarga qo'shimcha ravishda bank biletlari (banknotlar), metall tangalarni o'tkazish maqsadida yasash va ularni o'tkazish harakatlari ham jinoyat sifatida qayd etilgan.

Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etish mamlakat iqtisodiyoti, normal valyuta siyosatiga jiddiy zarar yetkazadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 147-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga ega [1]. Tizim yagonaligi va uni faqat davlat tomonidan boshqarilishi millionlab odamlarning ijtimoiy hayotiga bevosita bog'liqligi sababli

ta'kidlash lozimki agar yirik miqdorda soxta pullar muomalaga kiritilsa bu millionlab insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, normal ish faoliyati va hayot kechirishiga bevosita ta'sir etadi. Masalan, Jk 104-moddasi yoki 97-moddasini sodir etgan shaxs bir yoki bir nechta inson hayotiga zarar yetkazsa, Jk 176-moddasini sodir etgan shaxs mamlakat byudjetiga bog'langan, shu davlatda vaqtincha yoki doimiy yashayotgan har bir shaxsga bilvosita zarar yetkazadi [2]. Bu holatda jinoyat ishiga bir shaxs yoki ma'lum shaxslar guruhi jabrlanuvchi sifatida jalb etilsa-da aslida jinoyatdan bilvosita zarar ko'rgan shaxslar, muassasalar doirasi ancha keng bo'lishi mumkin. Fikrimizga dalil sifatida M.X.Rustambayevning ushbu modda bo'yicha "Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazishning ijtimoiy xavfliligi qog'oz pul yoki qimmatli qog'ozlar ko'payib ketishiga, ya'ni pul va tovar massasi o'zaro mutanosibligining buzilishiga sabab bo'ladi. Muomalada tovar bilan ta'minlanmagan qog'oz pullar paydo bo'ladi, bu esa pulning qadrsizlanishiga, iqtisodiy beqarorlikka sabab bo'ladi, davlat iqtisodiyotining asoslariga putur yetkazadi", degan fikrlarini keltirishimiz mumkin [3, B.100].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va qiyosiy-huquqiy usullar qo'llanildi. Jinoyat kodeksining 176-moddasi dispozitsiyasi amaldagi qonunchilik hamda xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlash maqsadida doktrinal manbalar hamda sud amaliyoti materiallari tahlil qilindi.

Muhokama. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, JK 176-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Qalbaki pul, qimmatli qog'ozlar va aksiz markalarini yasash hamda ularni o'tkazish muomaladagi moliyaviy vositalarga bo'lgan ishonchni susaytiradi va davlatning pul-kredit hamda fiskal siyosatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari jinoyatning obyektiv tomoni keng qamrovli ekanini, ayniqsa aksiz markalari va qimmatli qog'ozlar muomalasining murakkablashuvi sharoitida jinoyat sodir etish usullari ham takomillashib borayotganini ko'rsatdi. Raqamlashtirish jarayonlari, elektron qimmatli qog'ozlar va zamonaviy himoya elementlarining joriy etilishi bir tomondan xavfsizlikni kuchaytirs, ikkinchi tomondan yangi turdagi qalbakilashtirish usullarining paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Subyektiv tomonni tahlil qilish shuni anglatadiki, mazkur jinoyat faqat to'g'ri qasd va o'tkazish maqsadi mavjud bo'lgan taqdirdagina jinoyat tarkibini vujudga keltiradi. Amaliyotda aynan "o'tkazish maqsadi"ni isbotlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi va kvalifikatsiyada murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin.

Xorijiy tajriba, xususan Track&Trace tizimining joriy etilishi, qalbakilashtirishga qarshi preventiv choralar samaradorligini oshirayotganini ko'rsatadi. Shu bois milliy qonunchilikni texnologik rivojlanish jarayonlariga mos ravishda takomillashtirish, ayniqsa raqamli moliyaviy aktivlar muomalasini jinoiy-huquqiy jihatdan aniqroq tartibga solish zarurati mavjud.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, JK 176-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi murakkab obyektiv va subyektiv belgilar tizimiga ega. Jinoyatning bevosita obyekti davlatning pul-kredit tizimi, moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Predmet sifatida milliy va chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar hamda aksiz markalari e'tirof etiladi.

Obyektiv tomoni qalbakilashtirish (yasash) va o'tkazish harakatlarida ifodalanib, jinoyat formal tarkibli ekanligi aniqlandi. Ya'ni qalbakilashtirish harakatining o'zi jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi, real zarar kelib chiqishi shart emas. Subyektiv tomoni esa faqat to'g'ri qasd va o'tkazish maqsadi mavjud bo'lgan taqdirdagina shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, aksiz markalarining zamonaviy himoya elementlari va Track&Trace tizimining joriy etilishi qalbakilashtirish xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari yangi turdagi jinoyat usullarining paydo bo'lish ehtimolini yuzaga keltirmoqda.

Natijalar jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda ayniqsa "o'tkazish maqsadi"ni aniqlash muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Obyektiv tomondan, modda dispozitsiyasida ko'rsatilganidek harakatlar, ya'ni o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar yoxud chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash yoki ularni o'tkazishda ifodalanadi. Bu yerda shuni inobatga olish kerakki garchi dispozitsiyada milliy valyuta yozilmagan bo'lsada modda nomidan har qanday turdagi, shakldagi pulni qalbakilashtirish nazarda tutilganligini ko'rishimiz mumkin. Har qanday davlat yoki tashkilotning muomaladagi pul birliklarini qalbakilashtirish ushbu modda bilan jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Ushbu pullar muomaladagi pul birliklari bo'lishi zarur. Ya'ni muomaladan rasmiy ravishda chiqarilgan pullarni qalbakilashtirish bu jinoyat bo'yicha tarkib bermaydi.

Zamonaviy global rivojlanish sharoitida iqtisodiy munosabatlarning raqamlashtirilishi jinoyat huquqi normalarini ham yangi realiyalarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, qimmatli qog'ozlar muomalasining elektron shaklga o'tishi shaffoflikni ta'minlash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda qalbakilashtirish risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. M. Castellsning fikricha, raqamli jamiyat sharoitida axborot texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarning asosiy infrastrukturasi aylanadi va bu o'z navbatida iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini ham yangi shaklda tashkil etishni talab etadi [4].

Biroq raqamlashtirishning o'zi jinoyatchilikni to'liq bartaraf etmaydi. U. Beck tomonidan ilgari surilgan "risk jamiyati" nazariyasiga ko'ra, texnologik taraqqiyot yangi turdagi xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin [5]. Shu sababli qimmatli qog'ozlar reyestrlarining elektronlashtirilishi bilan bir qatorda ularni himoya qilishning kriptografik va texnik xavfsizlik standartlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan texnologiyaning rivojlanishi jinoyatlarning mohiyatini o'zgartiradi, ammo ularni yo'q qilmaydi. D. Wall ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalar jinoyatlarni yangi shakllarga transformatsiya qiladi [6]. S. Brenner esa kiberjinoyatlar uchun maxsus kriminal-huquqiy tartibga solish zarurligini asoslaydi [7].

Muomaladan chiqarilgan, biroq tarixiy yoki kolleksion qiymatga ega bo'lgan tangalarni qalbakilashtirish ham jinoyat-huquqiy himoya doirasiga kiritilishi lozim. A. Burnett numizmatik obyektlarning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [8].

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan yangi obyektlar paydo bo'lmoqda. Kriptoaktivlar ham shunday obyektlardan biri bo'lib, A. Wright va P. De Filippi blockchain texnologiyasi huquqiy munosabatlarda yangi tartibga solish mexanizmlarini

talab qilishini qayd etadi [9]. Yevropa Parlamenti hisobotlarida kriptoaktivlar potensial moliyaviy jinoyatlar predmeti bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan [10].

Shu nuqtai nazardan, muallif fikricha, jinoyat huquqi predmetining an'anaviy moddiy shakli bilan cheklanib qolmasligi lozim. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan axborot, algoritmik kodlar va virtual aktivlar ham jinoyat-huquqiy himoya obyektiga aylanishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, kelgusida kriptoaaktivlar muomalasi qonuniylashtirilgan taqdirda, ularning algoritmik kodlarini soxtalashtirish orqali sodir etiladigan harakatlarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasi doirasida kvalifikatsiya qilish masalasini ilmiy jihatdan asoslash zarur.

Umuman olganda, iqtisodiy munosabatlarning raqamlashtirilishi jinoyat huquqi normalarini modernizatsiya qilishni talab etadi. Qimmatli qog'ozlar, elektron reyestr tizimlari hamda kelgusida kriptoaaktivlar bilan bog'liq munosabatlar jinoyat huquqining yangi konseptual rivojlanish yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, agarda mamlakatlarning pul-kredit siyosati uchun mas'ul bo'lgan markaziy banklari yangi banknotlar chiqishi haqida e'lon bergan bo'lsa va pulning taxminiy ko'rinishi, tavsifi haqida ma'lumot bersa, o'sha pul birliklarini qalbakilashtirish ham Jk 176-modda bilan javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi lozim. Biroq, M.X.Rustambayevga ko'ra shaxsning jurnaldan yangi pulning namuna nusxalarini qirqib olib, ularni yopishtirib sotishga urinishini qalbaki pul yasash yoki ularni o'tkazish deb bo'lmaydi. Bunday qilmish muayyan sharoitda firibgarlik deb baholanishi mumkin. Chunki bunday pullar muomalada bo'la olmaydi va davlatning pul-kredit tizimi asoslariga putur yetkazmaydi [11, B.101]. Fikrimizcha, ushbu pozitsiya bilan to'liq kelishish qiyin. Zero, muomalaga kiritilishi Markaziy bank tomonidan rasmiy ravishda e'lon qilingan, biroq amalda hali muomalada bo'lmagan pul belgilarini qalbakilashtirish ham ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanishi lozim. Bunday yondashuv pul-kredit tizimining istiqboldagi barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilishi rejalashtirilgan pul birliklari iqtisodiy tizimda potensial to'lov vositasi sifatida shakllanadi va ularni oldindan soxtalashtirish kelgusida moliyaviy munosabatlarga zarar yetkazish xavfini tug'diradi.

Shuningdek, jinoyat huquqining preventiv funksiyasi nuqtai nazaridan jinoiy-huquqiy himoya nafaqat amaldagi, balki muomalaga kiritilishi rasmiy e'lon qilingan iqtisodiy qiymatga ega obyektlarni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday talqin pul tizimining ishonchliligini ta'minlashga hamda moliyaviy firibgarliklarning dastlabki bosqichlaridayoq oldini olishga xizmat qiladi.

Muomaladan chiqarilgan, biroq tarixiy, antiqa yoki kolleksion qiymatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tangalarni realizatsiya qilish maqsadida qalbakilashtirib zarb etish ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasi bilan javobgarlikni keltirib chiqarishi lozim. Chunki xorijiy tajribada, masalan, Germaniya jinoyat kodeksi 146-moddasi (Geldfälschung), Buyuk Britaniyada tegishli qonunda (Forgery and Counterfeiting Act 1981), AQSHdagi umumiy federal qonunchilikda muomaladan chiqarilgan ammo tarixiy qiymatga ega, kolleksiya sifatida ishlatish mumkin bo'lgan pullarni qalbakilashtirish uchun ham javobgarlik mavjud. Bu jinoyat huquqida himoya faqat amaldagi muomaladagi predmetlar bilan cheklanmasligi, balki potensial iqtisodiy va ijtimoiy xavf tug'diruvchi obyektlarni ham qamrab olishi mumkinligiga asos bo'ladi.

Kelgusida, agar mulk yoki to'lov vositasi sifatida kriptoaktivlarning muomalada bo'lishiga qonuniy asos yaratilsa, kriptoaktivlar algoritmik kodlarini soxtalashtirish orqali ularni to'lov sifatida ishlatish holatlari ham Jinoyat kodeksining 176-moddasi bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu jinoyatni sodir etish usuli asosan rangli chop etuvchi moslamalar (printerlar) yordamida, pul qog'oziga o'xshash materialli qog'oz turlaridan foydalangan holda, maxsus rang beruvchi bo'yoqlar bilan amalga oshiriladi. Ba'zan yirik kupyuralarni maxsus qolip yordamida ham tayyorlashga urinishlari mumkin. Bunda qalbakilashtirish uchun eng qiyin bo'lgan jihat, ya'ni har bir qog'oz kupyurada mavjud bo'lgan maxsus suv belgilari hisoblanadi. Rangli printerdan banknot nusxasi chop etilganda maxsus suv belgilari odatda mavjud bo'lmaydi yoki jinoyatchi maxsus suv belgilariga ishlov berish tajribasiga ega bo'lmaydi. Misol uchun, A. ismli shaxs 2025-yil 21-iyun kuni Payariq tumani mahallalarining birida joylashgan yashash uyida "Canon" rusumli rangli printerda 10.000 so'mlik kupyuradagi WA2271152 seriyali qalbaki pullarni yasab o'zining qarzdorligi evaziga boshqa fuqaroga o'tkazgan. Holat yuzasidan tayyorlangan ekspertizada pullar Respublika Markaziy Bank standarti talablariga javob bermaydigan holda, qo'lbola usulda printer yordamida tayyorlanganligi ko'rsatilgan [12]. Oqibatda shaxs Jk 176-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan.

Soxta banknotni tayyorlagan shaxslar banknotdagi maxsus identifikatsiyalovchi raqamlarni haqiqiy pullardan ko'chirishadi yoki haqiqiy pullardan aynan bir xil nusxa yaratishadi. Sababi, pullardagi maxsus raqamlar himoya belgilari sirasiga kiradi va uni qay tartibda, qaysi algoritmgaga muvofiq tartibga solinishi haqida jinoyatchilarda ma'lumot mavjud bo'lmaydi. Chunki bu ma'lumotlar har bir davlat markaziy banklari va pul chop etuvchi korxonaning maxsus ruxsatga ega xodimlarigagina ma'lum bo'lgan, odatda davlat siri darajasiga tenglashtirilgan yopiq axborotlar turkumiga kiradi.

Jinoyat sodir etish joyi odatda maxsus jihozlangan, uy sharoiti yaratilgan xonalar hisoblanadi. Shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar pul qalbakilashtirilayotganligi haqida xabarni olib, qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha prokuror roziligi va sudning sanksiyasiga asosan tintuv o'tkazish orqaligina jinoyat sodir bo'lgan joydan tintuv va ko'zdan kechirish harakatlarini olib borib, daliliy ashyolar, ya'ni chop etish vositalari, qog'ozga ishlov berishda qo'llaniladigan maxsus qoliplar, bo'yoqlar, materiallarni protsessual tartibda rasmiylashtirishlari mumkin. Ya'ni boshqa jinoyatlardan farqli ravishda bu jinoyatda hodisa sodir bo'lgan joy ommadan yashirin, ko'pincha jinoyat subyektiga qarashli maxsus xususiy uy-joylar hisoblanadi.

Subyektiv tomondan olib qaraganda shaxsda o'tkazish maqsadi bo'lishi zarur. Motiv qanday bo'lishi kvalifikatsiyaga ta'sir etmaydi. Ko'pincha shaxslarda g'arazli motiv asosida, ya'ni oson yo'l bilan pul topish, mol-mulkka qulay yo'llar bilan, qattiq mehnat qilmasdan erishish istagi mavjud bo'ladi. Shaxs bu harakatlarni faqat to'g'ri qasddan sodir etadi. Agarda shaxs o'zining hobbiysi sifatida qaysidir pul birligini chop etsa, ammo o'tkazish maqsadi bo'lmasa bu harakatda jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Masalan, A. ismli shaxs ishxonasida o'zining qiziqishlari tufayli 100.000 so'mlik kupyurani chop etdi va stoli ustida qoldirib, tashqariga chiqib ketdi. Undan qarz so'ragani kirgan yaqin do'sti stol ustida turgan pulni olib, marketdan savdo qiladi va u yerda soxta pul ekanligi ayon bo'ladi. Bu yerda A. ismli shaxsning ham uning yaqin do'stini ham aybi, qasdi mavjud emas. Shu sababli jinoyat tarkibi yo'q. Bundan tashqari, agarda shaxs avvaldan bilmagan holda, ko'chadagi odatiy savdo-sotiq tufayli qo'lga

kiritgan soxta pulni boshqa joyda ishlatayotgan paytda ushlanib qolsa ham, uning qilgan harakati jinoyat tarkibini bermaydi. Chunki u pulga qarab uning haqiqiylikiga shubha qilmagan. Pullarning soxtaligini avvaldan bilmagan, ish holatlariga ko'ra bilishi lozim ham mumkin ham bo'lmagan holatda jinoyat belgilari mavjud bo'lmaydi.

O'zbekistonda qanchadir muddat yashagan, muomaladagi banknotlardan xabari bor har bir shaxs kundalik maishiy bitimlar yuzasidan pul oldi-berdisini amalga oshirayotgan har bir holatda pullarga umumiy tarzda ko'z yugirtirib chiqishi lozim. Chunki u pullarni bankdan yoki ishxonasidagi moliya bo'limidan emas, balki ko'chadagi notanish odamdan olmoqda. Masalan, shaxs olgan puli 30.000 so'mlik bo'lsa, subyekt mazkur holatni anglash imkoniyatiga ega bo'ladiki, O'zbekistonda 20.000 so'mlik va 50.000 so'mlik pul kupyuralari mavjud bo'lsada 30.000 so'mlik kupyura mavjud emas. Shu sababli 30.000 so'mlik banknotni olgan shaxs uni boshqa xizmat yoki tovar uchun o'tkazmoqchi bo'lsa, qalbakiligini bilib turib o'tkazish maqsadida harakat qilgan deya gumon qilinishiga sabab bo'ladi. Agarda bu holat O'zbekistonga bir necha kun avval kelgan turist bilan sodir bo'lsa, unda jinoyatni ehtiyotsizlikda sodir etdi deb o'ylash uchun yetarli sabab mavjud bo'ladi.

Jinoyat subyekti sifatida umumiy subyekt yoshi 16 yosh, aqli raso har qanday jismoniy shaxs. Jinsidan, fuqaroligidan, jinoyatni qaysi davlat hududida turib sodir etgan bo'lsa ham jinoyat oqibatida O'zbekiston iqtisodiyotiga ma'lum darajada zarar yetadi. Jk 176-modda ikkinchi qismiga ko'ra modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, agar o'sha harakatlar uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi tasnifiga ko'ra ushbu moddaning 2-qismi og'ir jinoyat bo'lsa, 3-qismi o'ta og'ir jinoyat hisoblanadi.

JK 176-modda dispozitsiyasi qimmatli qog'ozlar, valyutani soxtalashtirishdan tashqari aksiz markasini qalbakilashtirishni ham o'z ichiga oladi. **Aksiz markasi** — alkogol va tamaki kabi aksiz to'lanadigan tovarlarning qonuniy ishlab chiqarilgani yoki import qilinganini tasdiqlovchi, davlat tomonidan maxsus himoya belgilari bilan chiqariladigan yorliqdir. U aksiz solig'i to'langanini va mahsulot sifatini kafolatlaydi, qalbakilashtirishdan himoya qiladi va davlat budjetiga tushumni ta'minlaydi.

Aksiz markasini soxtalashtirish odatda soliqdan qochish uchun, yashirin iqtisodiyot keng tarqalgan hududlarda sodir bo'ladi. Jinoyatchi odatda aksiz markasiga o'xshash aksiz marka tayyorlab, mahsulotlariga yopishtiradi. Iloji boricha mahsulotni muomalaga chiqarishda naqd pulga, kassa hisobiga kirim qilmasdan sotadi yoki sotib oladi. Ayrim hollarda 1 ta mahsulot uchun berilgan aksiz markasini xuddi shu turdagi mahsulotlarga nusxalab yopishtirib chiqadi.

Subyektiv tomondan jinoyatchi to'g'ri qasd bilan, moddiy manfaat uchun sodir etadi. Jinoyat sodir etgan shaxs soliqdan qochish yoki boshqa moddiy naf ko'rish uchun bilib turib harakat qiladi. Shuning uchun tamaki va alkogol mahsuloti bilan shug'ullanuvchi har bir shaxs oldi-sotdi jarayonlarida aksiz markasi haqiqiylik va har bir mahsulotda alohida mavjud ekanligini tekshirishi lozim.

Xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya) aksiz markalari quyidagi himoya elementlari bilan ishlab chiqariladi:

1. Gologrammalar

2. Mikro matn (microtext)
3. UV (ultrabinafsha) nurda ko'rinadigan belgilar
4. Maxsus tolali qog'oz
5. O'zgaruvchan rangli siyoh (optically variable ink)
6. QR-kod yoki Data Matrix kod
7. Seriya va individual identifikatsiya raqami [13].

Yevropa Ittifoqida 2019-yildan boshlab Track&Trace tizimi joriy etilgan [14]. Unga ko'ra, har bir tamaki qutisiga o'ziga xos identifikatsiya kodi, ishlab chiqaruvchi kompaniya nomi, ishlab chiqarilgan sana hamda partiya raqami kiritiladi. Mazkur tizim orqali hukumatning tegishli idoralari ishlab chiqarilgan har bir quti tamaki mahsulotining qayerda sotilayotgani va qaysi savdo shoxobchasining kassa apparatida realizatsiya qilinayotganini elektron tarzda, tijorat sirlariga rioya etgan holda kuzatib boradi.

O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy tajriba va ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish asosida alkogol va tamaki mahsulotlari uchun aksiz markalari qalbakilashtirishga qarshi muhim himoya elementlari bilan ta'minlangan. Masalan, alkogol mahsulotlariga aksiz markasidagi himoya elementlarining joylashish sxemasi quyidagicha.

1. Mikromatn "UZBEKISTAN".
 2. Ko'rish burchagi o'zgarganda o'z rangini o'zgartiradigan, "ANTISTOKS" xususiyatiga ega iridissent buyog'ida bajarilgan tasvir.
 3. QR-CODE "TOSHKENTVINO, AROQ, O'Z23026, 0,75 L".
 4. Mahsulot nomi "AROQ".
 5. Suv belgisi.
 6. Ishlab chiqaruvchining kod raqami O'Z23026.
 7. Nusxa ko'chirishga qarshi fon (asos).
 8. Qizil va yashil rangdagi ko'rinuvchan tolalar.
 9. Raqamli nomer aksiz markasining yuz tarafida "QORA" va orqa tarafda "QIZIL" rangda ko'rinadigan ko'chuvchi buyoq bilan chop etilgan.
 10. Mahsulot hajmi.
 11. Tasvir bo'rtmaliligiga ega buyoqsiz metallograf usulida kumush rangli asos ustida bajarilgan.
 12. Metall jism bilan ishqalansa "UZB" namoyon bo'ladi.
 13. Metallograf usulida bajarilgan multiton effektli, bo'rtmaliligiga ega naqshinkor bezak, infraqizil nurlari ostida ko'rinmaydigan bo'yoq bilan chop etilgan va markazida "UZB" mikromatni mavjud.
 14. Ultrabinafsha nurlari ostida ko'rinadigan sariq rangli nuqtalar va ko'k rangli tolalar.
- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kiriladigan tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markasining himoya elementlari quyidagi tartibda joylashgan.
1. Mikromatn "TAMAKI MAHSULOTLARI".
 2. Maxsus himoya bo'yog'i "ANTISTOKS" bilan bosilgan, infraqizil nurlari ostida tovlanadigan va ultrabinafsha nurlari ostida ko'rinadigan element.
 3. Ko'rish burchagi o'zgarganda o'z rangini o'zgartiradigan, iridissent bo'yog'ida bajarilgan tasvir.
 4. Ishlab chiqaruvchining kod rakami "O'Z2301".

5. Ultrabinafsha nurlari ostida ko'rinadigan sariq va ko'k rangli tolalar;
6. Qizil va yashil rangdagi ko'rinuvchan tolalar.
7. Nusxa ko'chirishga qarshi fon (asos).
8. Suv belgisi [15].

Jinoyat kodeks 176-moddasi yuqoridagilardan tashqari qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirishni ham o'z ichiga oladi. Avvalo qimmatli qog'ozlar nima ekanligini aniqlashtirib olish kerak. **Qimmatli qog'ozlar** – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi: obligatsiya, veksell, chek, depozit va jamg'arma sertifikatlar, konosament, aksiya hamda qonunchilik bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi [16].

Aksiya — o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi.

Obligatsiya – emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

Veksell – veksell beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksell egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz hisoblanadi [17].

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish, muomalaga kiritish hamda e'lon qilish bilan bog'liq munosabatlar "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, qimmatli qog'ozlar vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Shuningdek, qonunchilikda qimmatli qog'ozlarning turlariga qarab, unda mulk egasining rekvizitlari ko'rsatilishi nazarda tutilgan.

Tarixan qimmatli qog'ozlar maxsus himoya elementlariga ega bo'lgan qog'oz shaklida rasmiylashtirilib, unda nominal qiymati, foiz stavkasi, amal qilish muddati hamda mulk egasi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Hozirgi kunda esa qimmatli qog'ozlarning elektron (raqamli) shakllari ham keng tarqalgan. Bu holat ularni qalbakilashtirishni sezilarli darajada qiyinlashtirdi.

Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar bozori, undagi moliyaviy operatsiyalar, qimmatli qog'ozlarni rasmiylashtirish va ular bilan bog'liq hujjat aylanish jarayonlarining elektronlashtirilishi zamonaviy rivojlangan iqtisodiyotning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohani raqamlashtirish nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, mulk egalari to'g'risida ishonchli reyestrlarni yuritish hamda shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi.

Qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv tomoni odatda bir necha usullarda namoyon bo'ladi. Amaliyotda uchraydigan asosiy soxtalashtirish usullari quyidagilardan iborat:

1. Shaxs aslida mavjud bo'lmagan yuridik shaxs nomidan soxta aksiyalar yoki obligatsiyalar chiqaradi. Emitentlar reyestri hamda obligatsiyalar bozori to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan jabrlanuvchilar obligatsiyada ko'rsatilgan yuqori foiz stavkasi va qisqa muddatli daromad va'dalariga ishonib, mazkur qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari mumkin. Boshqa holatda esa, bozorda obro'-e'tiborga ega bo'lgan va muntazam ravishda qimmatli qog'ozlar chiqarib turuvchi kompaniya nomidan soxta qimmatli qog'ozlar emissiya qilinib, jabrlanuvchilar chalg'itiladi.

2. Amalda mavjud bo'lgan haqiqiy qimmatli qog'oz rekvizitlariga o'zgartirish kiritish orqali soxtalashtirish. Jumladan, unda ko'rsatilgan foiz stavkasini oshirish, mulkdor nomini boshqa shaxs nomiga almashtirish yoki to'lov (qaytarib olish) muddatini o'zgartirish kabi harakatlar amalga oshiriladi. Bunday holatni aniqlash uchun qimmatli qog'oz rekvizitlarini vakolatli organ yuritadigan reyestr ma'lumotlari bilan solishtirish yetarli hisoblanadi.

3. Qimmatli qog'oz blankasiga emitentning vakolatli shaxsi imzosini yoki rasmiy muhrini qalbakilashtirish orqali hujjatga qonuniy ko'rinish berish. Bunda hujjat tashqi belgilari bo'yicha haqiqiy qimmatli qog'oz taassurotini uyg'otadi, biroq u yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

4. Depozitar reyestrtdagi yozuvlarga xakerlik yo'li bilan noqonuniy o'zgartirishlar kiritish, elektron aksiyalar yoki obligatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni buzish, o'chirish yoki qo'shimcha ma'lumotlar kiritish orqali soxtalashtirish. Bunda jinoyat kompyuter texnikasi va axborot tizimlaridan foydalangan holda sodir etilgani sababli, u axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 21-bobi) hamda qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli modda (JK 176-modda) bilan jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

5. QR-kod yoki boshqa identifikatsiyalovchi maxsus belgilarni haqiqiy qimmatli qog'ozdan ko'chirib olib, ularni soxta rekvizitlar va mulkdor nomi kiritilgan qimmatli qog'ozga joylashtirish orqali soxtalashtirish. Bunday holatda dastlabki tekshiruv jarayonida QR-kod yoki boshqa identifikatsiya raqami haqiqiy deb aniqlanishi mumkin, biroq ma'lumotlar bazasidagi asl rekvizitlar bilan taqqoslash natijasida qalbakilashtirish holati fosh etiladi.

Shu o'rinda aytish kerakki ayrim olimlar, jumladan M.Urazaliyev va P.Yesenbekovaga ko'ra, Aksiz markalarni JKning 176-moddasi dispozitsiyasiga kiritish va ularni ushbu modda obykti sifatida hisoblash noto'g'ri deb hisoblanadi. Aksiz markalar, maxsus qat'iy hisobvaraqlarga ega blankalar bo'lib, qimmatli qog'ozlar turkumiga kirmaydi va pul yoki tovarlarning ekvivalenti hisoblanmaydi, chunki ularning nominal qiymati yo'q, bu esa faqat pul vositalari va qimmatli qog'ozlarga xos xususiyatdir. Shu sababli, ular pul muomalasida ishtirok etmaydi. Ularni soxtalashtirish yoki sotish, ijtimoiy munosabatlarni, davlatning pul-kredit tizimining normal faoliyatini ta'minlovchi munosabatlarni buzishi mumkin emas. Shu bois, aksiz markasini 176-moddasi dispozitsiyasidan jinoyat obykti sifatida chiqarish mantiqan to'g'ri ko'rinadi [18]. Ularning fikridan kelib chiqsak, aksiz markalarni soxtalashtirishni JK 176-moddasi emas Jk 228-moddasi tartibga solsa mantiqan to'g'ri bo'lishi mumkin. Masalan Rossiya jinoyat kodeksi 186-moddasi qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash, saqlash, tashish yoki o'tkazishni nazarda tutsa, qalbaki aksiz markasi tayyorlash, o'tkazish JK 3271-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot JK 176-moddasida nazarda tutilgan qalbakilashtirish va o'tkazish jinoyati iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi, yuqori ijtimoiy xavflilikka ega murakkab jinoyat tarkibi ekanligini ko'rsatdi. Jinoyatning obykti davlatning

pul-kredit tizimi va moliyaviy barqarorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning predmeti milliy va chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar hamda aksiz markalarini qamrab oladi.

Tahlillar jinoyatning formal tarkibli ekanini hamda uni kvalifikatsiya qilishda ayniqsa subyektiv tomondagi o'tkazish maqsadini aniqlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Raqamlashtirish jarayonlari va moliyaviy instrumentlarning transformatsiyasi qalbakilashtirish usullarining ham evolyutsiyasiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan jinoyat qonunchiligini zamonaviy texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda takomillashtirish, raqamli moliyaviy aktivlar muomalasini aniqroq jinoiy-huquqiy tartibga solish hamda preventiv mexanizmlarni kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (yangi tahrir). – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2025.
3. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. –529 bet.
4. Castells, M. *The Rise of the Network Society*. Blackwell Publishers, 1996.
5. Beck, U. *Risk Society: Towards a New Modernity*. Sage Publications, 1992.
6. Wall, D. *Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age*. Polity Press, 2007.
7. Brenner, S. W. *Cybercrime: Criminal Threats from Cyberspace*. Praeger, 2010.
8. Burnett, A. *Coins*. British Museum Press, 1991.
9. Wright, A. & De Filippi, P. *Decentralized Blockchain Technology and the Rise of Lex Cryptographia*.
10. European Parliament. *Cryptocurrencies and Blockchain – Legal Context and Implications*. 2018.
11. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Darslik. 2018. – 529 bet.
12. Samarqand viloyati sudi arxividan. 1-1412-2601/4-sonli jinoyat ishi.
13. Yevropa Ittifoqi – Tobacco Products Directive (2014/40/EU). <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0040>
14. Yevropa Ittifoqi – Tamaki mahsulotlari Track & Trace tizimi. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0040>
15. 26.07.2023-yildagi 313-sonli Vazirlar Mahkamasi Qarori <https://lex.uz/docs/-6546605>
16. Fuqarolik kodeksi 96-modda. Qimmatli qog'ozlar <https://lex.uz/docs/-111189#-152874>
17. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida qonun. 04.06.2015. O'RQ-387-son. <https://lex.uz/docs/-2662539>
18. Уразалиев, М., & Есенбекова, П. (2022). Совершенствование уголовного законодательства, предусматривающего ответственность за изготовление, сбыт поддельных денег, акцизных марок или ценных бумаг. Общество и инновации, 3(1), 89–97. (Urazaliev, M., & Yesenbekova, P. (2022). Improvement of criminal legislation providing liability for the production and circulation of counterfeit money, excise stamps, or securities. Society and Innovation, 3(1), 89 97.)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).